Central Asian Research Journal of Natural and Exact Sciences
INTERNATIONAL SCIENTIFIC, APPLIED AND THEORETICAL JOURNAL
2026 / № 1(2)
SCIENCE FOR A SUSTAINABLE CENTRAL ASIA

THE ARTISTIC INTERPRETATION AND POETIC FEATURES OF THE THEME OF KNOWLEDGE IN THE EPIC “HIBAT UL-HAQOYIQ”

“HIBAT UL-HAQOYIQ” DOSTONIDA ILM MAVZUSINING BADIIY TALQINI VA POETIK XUSUSIYATLARI

Ergasheva Lobar Furqat qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Email: lobarfurqatovna0208@gmail.com

Abstract. This article provides brief information about Adib Ahmad Yugnakiy’s epic Hibat ul-Haqoyiq, highlighting the work’s fundamental essence and the moral and educational ideas it promotes. It also examines the content and artistic features of the verses that reflect the role and importance of knowledge in the formation of a well-rounded individual. The epic’s views on knowledge and enlightenment, ethics and morality, and human perfection are comparatively interpreted in the light of hadiths, revealing their educational significance. The article is based on the source published in 2002 in Bahrom Goyib’s translation.

Keywords: Hibat ul-Haqoyiq, teacher of morality, basir (one who sees with insight), ascetic, muttaqiy (a pious and God-conscious person), well-rounded individual, knowledge, spirituality, happiness, antithesis, hyperbole, hadith.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostoni haqida qisqacha ma’lumot berilib, asarning tub mohiyati va unda ilgari surilgan axloqiy-ma’rifiy g‘oyalar yoritilgan. Shuningdek, komil insonni tarbiyalashda ilmning o‘rni va ahamiyatini aks ettiruvchi baytlar mazmuniy hamda badiiy jihatdan tahlil qilingan. Dostonning ilm-ma’rifat, odob-axloq va inson kamolotiga oid qarashlari hadislar bilan qiyosiy sharhlanib, ularning tarbiyaviy ahamiyati ochib berilgan. Maqolani

tayyorlashda Bahrom G‘oyib tarjimasida 2002-yilda nashr etilgan manbadan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: “Hibat ul-haqoyiq”, adab muallimi, basir, zohid, muttaqiy, komil inson, ilm, ma’naviyat, saodat, tazod, mubolag‘a, hadis

Adib Ahmad ibn Mahmud Yugnakiy XII asr oxiri XIII asr boshlarida Qoraxoniylar davlatida yashab ijod etgan shoir, mutafakkir hamda o‘zining tili bilan aytganda adab muallimidir. U tug‘ma ko‘zi ojiz bo‘lishiga qaramay, o‘z davrining chuqur ilmli, arab va fors tillarini, islom ilmlarini, jumladan hadis ilmini puxta egallagan kishisi bo‘lgan. Alisher Navoiy shahzoda Badiuzzamon Mirzoga yo‘llagan maktublaridan biridagi izohlarda Adib Ahmad tug‘ma ko‘r (basir) bo‘lgani, biroq g‘oyatda ziyrak, zakiy, zohid va muttaqiy kishi ekanligi haqida aytib o‘tgan.

Adib Ahmad Yugnakiy ijodidan bizgacha yetib kelgan asosiy yodgorlik “Hibat ul-haqoyiq” dostonidir. Ushbu asar Farg‘ona hukmdori Dod Spohsolorga bag‘ishlangan bo‘lib, uning tub mohiyatida komil insonni tarbiyalash masalasi yotadi. Muallif inson kamolotini birgina tashqi mavqe yoki moddiy boylik bilan emas, balki uning bilimi, odobi va ma’naviy fazilatlari bilan bog‘liq holda talqin etadi. Shu jihatdan ilm masalasi dostondagi axloqiy-ma’rifiy qarashlarni birlashtiruvchi muhim g‘oyalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ilm insonning borliqni anglashiga, yaxshilik va yomonlikni farqlashiga hamda o‘z xulq-atvorini takomillashtirishiga xizmat qiluvchi ma’naviy kuch sifatida talqin etiladi. Aynan shuning uchun ham asar muqaddimasida mumtoz adabiyotdagi an’anaviy shaklga ko‘ra Yaratganga hamd, Payg‘ambar alayhissalomga na’t, chaxoryorlar madhi va asar bag‘ishlangan hukmdor - Dod Spohsolor madhidan so‘ng, asarning asosiy qismi ilmning saodatga eltishi haqidagi misralar bilan boshlanadi:

Bilim bilan ochilur saodatga yo‘l,

Baxt yo‘lini izla, dostim, baxtli bo‘l.

Keltirilgan misralarda ilm va saodat tushunchalari o‘zaro uzviy bog‘liq holda ifodalangan. Birinchi misradagi “bilim bilan ochilur saodatga yo‘l” ifodasi ilmni insonni

ezgulikka va baxtga yetaklovchi vosita sifatida talqin etadi. Bu o‘rinda “yo‘l” obrazi maqsadga erishish jarayonini anglatib, bilim esa shu jarayonning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi misradagi “baxt yo‘lini izla” da’vati esa fikrni pand-nasihat ruhida davom ettiradi. “Do‘stim” murojaati orqali muallif o‘quvchi bilan samimiy muloqotga kirishib, uni ezgu maqsad sari intilishga undaydi. Dostonning asosiy qismi bevosita ilm bilan boshlanganini Qur’oni Karimning ilk nozil bo‘lgan oyatlari - Alaq surasining dastlabki besh oyati ham bevosita ilmga, o‘qishga qaratilgani bilan ham izohlashimiz mumkin.

Navbatdagi bayt orqali esa “ilmsizlik” tushunchasi hayotiy misol orqali tushuntiriladi;

Ilmsiz – iliksiz so‘ngak kabi bo‘sh,

Iliksiz so‘ngakka kim qo‘l urar, xo‘sh.

Bu baytda shoir o‘quvchiga tanish bo‘lgan jismoniy obraz orqali mavhum tushuncha — ilmsizlikni tasvirlaydi. Suyakning iliksizligi uning ichki to‘liqligi va foydasi bilan bog‘liq tasavvurni uyg‘otadi. Shoir shu o‘xshatish orqali ilm insonning ichki ma’naviy boyligi ekanini anglatadi. “Ilmsiz inson” va “iliksiz suyak” o‘rtasida tashbeh mavjud. “Bo‘sh” so‘zi esa insonning bilim va ma’naviy mazmundan xoli qolishini obrazli ifodalaydi. Ikkinchi misradagi ritorik so‘roq — “kim qo‘l urar?” — fikrning ta’sirchanligini oshiradi.

Keyingi bayt esa ilmning haqiqiy boylik ekanligini ifodalab keladi:

Mol-dunyosiz faqirga bilim -boylik,

Sarf aylab, qo‘rqmay qilsin Xotamtoylik.

Baytda moddiy boylikka ega bo‘lmagan inson uchun bilim bebaho ma’naviy boylik sifatida talqin etiladi. Ilm insonning dunyoqarashini kengaytiradi, imkoniyatlarini oshiradi va jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashiga yordam beradi. Ikkinchi misrada esa shoir talmeh she’riy san’atidan unumli foydalanib, bilim bilan sahovat o‘rtasida aloqa o‘ranatadi. “Hotamtoylik” saxovatpeshalikni anglatadi va buni shoir ilm egasini bilimini ayamaydigan, uni boshqalar bilan baham ko‘radigan inson bo‘lishga undayotgandek

talqin qilish mumkin. “Faqir” va “boylik” tushunchalarini zidlash orqali, chinakam boylik faqat mol-dunyo emas, balki ilm, ma’naviyat shaklida namoyon bo‘lishi ifodalanadi.

Keyingi baytda ilmli insonning ulug‘lik darajasi haqida so‘z boradi:

Ilmli zotlar o‘tsa ham nomi ulug‘,

Ilmsiz – tiriklayin o‘lgan bir cho‘luq.

Ushbu baytda ilmli insonning qadri uning hayoti bilan cheklanmasligi, balki uning ezgu amallari va ilmi orqali kelgusi avlodlar yodida bo‘lishi, ilmsiz inson esa jismonan tirik bo‘lsa-da, ma’naviy kamolotdan yiroq ekanligi ta’kidlanadi. “Ilmli” va “ilmsiz” so‘zlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik tazod san’atini yuzaga keltirib, bayt ma’nosining ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Jaloliddin Rumiy o‘zining “Masnaviyi ma’naviy” asarida misollar orqali isbotlab berganidek, narsalar o‘z zidlari bilan namoyon bo‘ladi. Oq rang o‘zining go‘zalligini faqat qora rangning qarshisida to‘la namoyon qila olganidek, ilmning qadr-qimmati ham ilmsizlik oldida to‘la namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, “nomi ulug‘” birikmasi ilm egasining jamiyatdagi hurmati va ma’naviy davomiyligini ifodalasa, “tiriklayin o‘lgan” ifodasi kuchli mubolag‘a orqali ilmsizlikning salbiy oqibatini ta’kidlaydi.

Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamdan rivoyat qilingan hadisda inson vafotidan keyin ham savobi davom etadigan amallar qatorida manfaatli ilm zikr etiladi. Hadis Sahih Muslimning 1631-raqamli rivoyati sifatida tanilgan. Bu fikr Yugnakiyning ilm egasi nomining ulug‘ligi haqidagi qarashi bilan mazmunan mushtarak: ilmning qadri uning insonlarga keltiradigan foydasi va qoldiradigan merosida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari “Hibat ul-haqoyiq” dostonida insonni komillikka yetaklovchi til odobi va so‘z mas’uliyati, dunyoning o‘tkinchiligi, saxiylik va baxillik, kamtarlik va tavoze’ kabi mavzular haqida ham so‘z yuritilib, ularning aksar qismi hayotiy misollar orqali tushuntiriladi. Dostondagi baytlarning mazmuniga Qur’oni karim va hadisi sharif ma’nolari chuqur singdirilgan bo‘lib, bu asarning islomiy-ma’naviy qadriyatlar bilan

uzviy aloqasini ko‘rasatadi. Ahmad Yugnakiy “Hibat ul-haqoyiq” dostonida ilgari surgan ma’naviy qarashlar bugungi kunda ham yosh avlodni bilimli, odobli va ma’naviy barkamol etib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq. Bahrom G‘oyip tarjimasi. Ziyouz.com electron kutubxonasi. 2002-yil sentabr

2. Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq: nasriy bayoni.

3. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. Abdulaziz Mansur. — Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2009.

4. Muslim ibn al-Hajjoj. Sahih Muslim. 1631-hadis.

5. www.ilmlar.uz